




Kattaqo'rg'on shahar statistika bo'limi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Kattaqo'rg'on shahar statistika bo'limining (keyingi o'rinlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qarori bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda Statistika agentligi deb ataladi) yagona tizimiga kiruvchi hududiy shahar statistika organi hisoblanadi va o'z faoliyatida Samarqand viloyati statistika boshqarmasiga (keyingi o'rinlarda Boshqarma deb ataladi) bo'ysunadi.

Bo'lim mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Boshqarmaga bo'ysunadi.

3. Bo'lim mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarni rasmiy statistika axborotiga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimining faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan rasmiy statistika sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risidagi" Qonuni va boshqa qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Statistika agentligining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, Boshqarmaning buyruqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlikda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini har yili Statistika agentligining Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Bo'limning qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Bo'limning joylashgan manzili: Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, A.Navoiy ko'chasi, 154-uy.

2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta‘minlash;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish va boshqarmaga taqdim qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va statistik ma‘lumotlardan foydalanuvchi aholini tuman hududi bo‘yicha statistika ma‘lumotlari bilan belgilangan tartibda ta‘minlash;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas‘uliyatlarini oshirish;

ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

10. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to‘g‘risida xabardor qilish choralari ko‘radi hamda ularni elektron shaklda to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

Bo‘limning tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi.

11. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika dasturining bajarilishini ta‘minlaydi;

tuman hududi bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan belgilangan statistika hisobotlari va kuzatuvlarini o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni, ro‘yxatdan o‘tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so‘rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat‘iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta‘minlaydi;

tuman hududi bo‘yicha eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

statistika, hisobot ko‘rsatkichlarining va o‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

respondentlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo'llanishini ta'minlaydi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatri doirasida Bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning keng ommasi uchun hudud bo'yicha statistika ma'lumotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

shartnoma asosida, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi.

b) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida Bo'lim ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

Bo'lim xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

Bo'lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'radi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida respondentlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

statistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash jarayonlarida tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

c) ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish sohasida:

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish ishlarini tashkil etadi;

ro'yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olishga doir hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi) va yo'q qilinishi ta'minlaydi.

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

12. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududdagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

hududdagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish yuzasidan boshqarmaga takliflar kiritish;

statistik tahliliy, axborot xizmatlari va Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma asosida ko'rsatish.

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim boshlig'i va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistika ma'lumotlari, statistika axborotlari va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, berganlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

14. Bo'limga Statistika agentligi bilan kelishilgan holda Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

15. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Bo'lim xodimlarining majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

Bo'lim xodimlarini mukofotlash, rag'batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha boshqarmaga takliflar kiritadi;

Bo'lim xodimlari malakasini oshirish va ularning qayta tayyorlash ishlarini Boshqarma bilan kelishgan holda tizimli asosda ta'minlaydi;

Bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi.

Bo'lim boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5-bob. Bo'lim faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti

16. Bo'limning mol-mulkini boshqarma tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek, qiymati boshqarma balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

Bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish Boshqarma tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

17. Bo'limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.